

ABDURAUUF FITRATNING “BEDIL” ASARI VA UNING TALQINI*Oqilov Ahrorjon Bahromjon o'g'li**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Sharq falsafasi va madaniyati kafedras**4-kurs talabasi**E-mail: oqilovahrerjon@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqola taniqli o'zbek olimi, jadidchilikning yetakchi vakili va mutafakkiri Abdurauf Fitratning “Bedil” asari va uning tahliliga qaraatilgan

Kirish so'z. Abdurauf Fitrat, Buxoro amirligi, kritika, jadidchilik va jadidlar, birinchi o'zbek professori, “Bedil”, Fasod, Nuqot, Irfon, Chor unsur, takammul, afkori umumiya

Fitratning ko'plab asarlari qatori uning “Bedil” asari ham o'rganiladigan muhim material sifatida namoyon bo'ladi. “Bedil” asarining asosiy qahramonlari ikki yo'nalish-ikki xil fikr vakillari o'rtasidagi tahliliy jarayon bilan bog'liq. Asarga bu nom berilishining sababi undagi asosiy munozara Bedil shaxsiyati va uning asari ustida borayotgani uchundir. Bunda asosiy obraz sifatida Qutlug' gavdalanadi. Uning dunyoqarashining shakllanishida G'arb ta'limining o'rni yaqqol sezilib turadi. Qutlug'da ilm olishdagi boshlang'ich davr va yoki o'z makanidagi vaziyatlar hamda qarashlar bilan konflikt ko'zga tashlanadi. Asarning asosiy mavzusi Bedil qarashlari bo'lgani holda uning o'z zamoni va shaxsiyatiga yondashuv Qutlug' ta'sirlangan ilmiy muhit ham ko'zga tashlanadi. Fitrat ijodining bir jihati u o'zi haqida ko'p ma'lumot qoldirmagan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki asarga ba'zi tahlilchilar asar qahramoni Qutlug'ga Fitratning avtobiografik obrazi sifatida qaraydilar. Bu yondashuv bir ma'noda to'g'ri ham. Sababi, Fitratning boshqa asarlari (masalan, “Sayyohi hindi”) da ham uning asosiy qahramonining orqa planida muallifning o'zi namoyon bo'ladi. Asarda Bedilning “Nuqot” “Irfon” asarlarining talqini ketadi. Ma'lumki, tarixda bedilxonlik kechalari o'tkazib turilgan. Bunda asardan parchalar o'qilgan. Shu kechalardan biriga taklif qilingan Qutlug' asarlardagi mulohazalarga o'z yondashuvlarini beradi. Jamiyatdagi unga nisbatan qaratilgan, uningcha noto'g'ri, yondashuvlar Qutlug'ni hayratda qoldiradi. Voqealar Buxoroda kechadi. Unga shaharda yurgan vaqtda urfiy libosni kiymagani uchun ba'zi insonlar tomonidan odatiy kiyim kiyishini ta'kidlashgani g'alati bir holat edi. Bunga nisbatan qahramonning munosabati elni ishontirmoq uchun salla-chopon emas, xalqqa manfaat yetkazish darkor. Liboslarga ko'p e'tibor berilishi hozirda ham ayrim o'rinlarda uchrab turishi bizga ma'lum. Bu jihatdan masala hali ham dolzarb Fitrat ko'targan mavzu boshqacha ko'rinishda davom etmoqda.

Majlisga kirishar ekan undagi muhit asosan so'z jilosiga oshuftalik ekanligi anglashiladi. Bu qahramon tomonidan ham tanqid qilinadi. Yechimga ko'ra o'qilyotgan asarning mazmuni uning tashqi jozibasidan yuqori turadi. Kitobxon-likdan maqsad ham shu bo'lmog'i kerak. Asarning mohiyati uning ma'nosida mujassamdir.

Asrda ko'tarilgan masalalar, birinchidan asarda Bedil vahdat-ul vujud namoyondasi sifatida yondashuv beriladi. Bundan ma'lum bo'ladiki Fitrat Bedilni Yevropa ta'limi orqali o'rgangan. Vahdat ul-vujud masalasiga Bedilning asarlarini o'qish jarayonida Bedilni shu oqimning vakili bo'lgan degan xulosa bir yoqlama bo'lish ehtimoli yuzaga chiqadi.

Ikkinchidan, asarda Bedil falsafasi takammul deb ta'riflanadi. Takammul bu Charlz Darvinning nazariyasi bo'lib bu evolyutsion qarash demakdir. Bu nazariyaga ko'ra inson maymundan tarqalgan ekani ta'kidlanadi. Fitrat Bedilni islom ta'limotiga ko'ra ta'kidlanadigan Odam Ato va Momo Havvo haqidagi aqidaga ishonmasligini aytadi, lekin bu yondashuv ajratib olinib tahlil qilingan ma'lumot. Bedil o'zining "Yaralmish" ruboiysida quyidagilarni yozadi:

Sabo to'zg'itgudek bir kaft tuproq

Qo'shilgach qon ila, odam yaralmish.¹

Agar Bedil takammul g'oyasi vakili bo'lganda inson yaralgan va tuproqdan vujudga kelganini qayd etmagan bo'lardi. Faqat bugina emas, Bedil yana bir asarida:

Kibr-u hasad bermas kishiga orom,

Odamni mensimmay quvildi shayton,-deydi.²

Albatta, bu misralar Bedilning bu jihatdan islom e'tiqodidan chiqmaganini ko'rsatadi. Chunki, islomda shaytonning Dargohi ilohiydan quvilishi odam yaratilganidan keyin unga sajda qilishdan bosh tortgani uchun sodir bo'lgan, deb e'tibor qilinadi. Mana shu o'rinda asar yozilgan vaqtni aytishning ayni payti. Asar Nazir To'raqulov so'zboshisi bilan 1923-yilda Moskvada, Millat ishlari komissarligi qoshidagi, "Sharq" nashriyoti tomonidan arab tilida "Darvish" imzosi bilan bosmadan chiqadi. Ana endi asarning talqiniga ta'sir etgan omillarga to'xtalsak. Bu asar Fitratning Bedil haqidagi birinchi asari emas. U 1910-yillarda Bedil ijodi ustida ishladi. 1920-yillarda ham Bedilga bag'ishlab "Tong" jurnalida "Mirzo Bedil" nomli maqola chop ettirdi. "Bedil" asarini yozish ustida esa Moskvada yurgan kezlari kirishdi. Bunga uning Moskvada tanishgan asarlari turtki bo'ldi. Bu esa o'z-o'zidan asarga o'sha vaqtda sotsiolizm yuragi hisoblangan Moskvadagi targ'ibotlar, insonni mehnatga bo'lgan maylini yanada ko'tarish uchun bo'layotgan urinishlar muhrini qo'ygani va hatto Fitrat ham bu qarashdan nisbatan ta'sirlanganligini bildiradi.

¹ Мирзо Абдулқодир Бедил (1644-1721) - www.ziyouz.uz

² Мирзо Абдулқодир Бедил (1644-1721) - www.ziyouz.uz

Uchinchidan, jamiyatning shakllanishi borasidagi xulosalarda mehnatkash xalqning ezilgani, uning ustidan hamisha quvvat bilan ekspluatatorlik qilingani qayd etadi. U buning sababchisi sifatida Bedil qalamga olgan fasod-podsholikni ko'rsatadi. Bu o'sha davrdagi sovet tuzumi mafkurasiga xizmat qiladigan yondashuv edi. Bilamizki, sovet tuzumi o'zining g'alabasini shunday tuzumga barham berish bilan qo'lga kiritgan edi. Tarix jadidlarni dastlabki yillarda sovet hukumatiga oz bo'lsada, umid bilan qaralganligini bayon qiladi. Fitrat ham shunday yondashdi, biroq natija uning o'ziga qarshi qurol bo'lib xizmat qildi.

To'rtinchidan, Sharqning dunyoviy masalalarda ortda qolishini xalqning beparvoligi, buni anglab yetmasligi, unga bu narsalarni tushuntirishi kerak bo'lgan hukumat ham g'aflatda ekanligini ta'kidlab, Sharq xalqlarini o'rinli tanqid qiladi. Bu hol Yevropa davlatlari o'rtasida imperializm maydoni sifatida Sharqni nazarda tutayotganligi baholanadi. Yevropada ko'p bor urushlar bo'lib o'tganligining sababi ham aynan shu mulklarni taqsimlash uchun ekanligini nazarda tutadi. Bunda afkori umumiyanning e'tibor markazi ilm-fandan uzoqlashgani siyosiy ong xalqaro munosabatlarni ilg'aydigan darajada emasligi ko'zda tutilgan edi. Bu holatni Bedildagi "tish osti (y)iringi yaralaydir"³ iborasi bilan sharhlaydi.

Beshinchidan, inqilobni ruslar tomonidan amalga oshirilgan ko'rinishi unga juda ma'qul kelgani masalani hal qilish usuli sifatida baholanadi. Bu ham yangi shakllanayotgan davlatga g'oyaviy xayrixohlik edi. Tarixdan ma'lumki tuzumlar evalyutsion va revalyutsion yo'l bilan isloh qilinadi, Fitrat revalyutsion qarash tarafdori bo'lganligi esa tarixdan ma'lum. Lekin bu uning birdaniga kelgan qarori emas. U xalqni kuzatdi, islohot yo'llarini tahlil qilib shu fikrni qabul qildi. Asosiy yo'l sifatida ta'limni tanlaydi. Ta'lim – tarbiya masalasi islom dinining ham asosini tashkil etadi⁴.

Oltinchidan, Bedilning fikrlaridan dindor rahnamolar: shayxlar, domlarga qarata aytilgan fikrlarni baholash. Bu tasavvuf vakillari bilan ba'zida dindan o'z nafsi yo'lida foydalanganlarning o'rtasida uchrab turadigan holatdir. Chunonchi, islom ko'zbo'yamachilikni qoralaydi. Munofiqlikni og'ir illat va katta gunoh hisoblaydi. Tasavvuf vakilligini da'vo qilib yo'ldan adashgan insonlar ham albatta yo'q emas. Bedil ana shularga qarata murojat qila deydi: "Sen shayxning etagini kirsiz ko'rib nursiz iymoniga aldanma". Xoja Ahmad Yassaviyning bizgacha yetib kelgan asari "Devoni hikmat" bo'lib, unda ham shu kabi ma'nolar mavjud⁵. Ular asarda ustida kul

³ Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar 5-jild. T, 2010. 19b

⁴ To'raev L. A. O. G. L., Nizomova N. Q. SHARQ ALLOMALARINING DUNYOQARASHIDA TA'LIM-TARBIYA MASALASI //International scientific journal of Biruni. – 2023. – T. 2. – №. 1. – C. 16-20.

⁵ Bahromjon o'g'li O. A. Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" asarida axloqiy tamoyillarning namoyon bo'lishi //Ustozlar uchun. – 2023. – T. 45. – №. 6. – C. 11-16.

(ya'ni oq), ichida ko'mir saqlaganga mengzaladi. Tasavvuf vakillariga xos xususiyat esa gunoh emas hatto shubhali narsalarni ham tark qilishdir. Albatta, Bedil ham mutasavvuf bo'lgani holda har zamonda bo'lishi mumkin bo'lgan kurmaklarga shunday keskin munosabatda bo'lishi tayin. Fitratning yondashuvidan emas juz'iy emas umumiy xulosa chiqarib olmaslik zarur. U riyokor nafsiga ergashganlarni qoralagi holda, dinida sobit turganlarni ham o'ziga do'st deb bildi(masalan, Munavvarqori Abdurashidxonov).

XULOSA

“Bedil” asari Abdurauf Fitrat ijodidagi muhim kritik qarashlarni ochib beradi. Undagi syujetlar insonni o'ylashga fikrlarni aql tarozisiga qo'yishga chorlaydi. Asardagi ba'zi elementlar o'sha davr tuzumiga moyil bo'lsada, bu Fitratning jamiyat oldidagi xizmatlaridan ko'z yumishga asos bo'lolmaydi. Fitrat tomonidan berilgan yondashuvlar bugungi kunda ham o'z aktivligini yo'qotgani yo'q. Fitratning ilmiy merosi uning tarixiy faktlarni yoritishga bo'lgan urinish va intilishlari har doimgidan ko'ra bugungi aralash axborotlar va “sariq matbuot” davrida chinni yolg'ondan, oqni qoradan ajratib olishga xizmat qiladi. Olim o'z tahlillarini o'quvchiga shunday singdiradiki, undan keskinlik va qat'iylik insonni o'z pozitsiyasini aniqlash uchun savollar berishga majbur qiladi. Fitrat asarlarini tahlil qilish falsafadagi asosiy maqsadlardan bo'lmish tanqidiy nuqtayi nazarni shakllantirishda o'z hissasini qo'sha oladi. Bugungi ta'lim jarayoniga aynan Fitrat asarlaridagi tanqidiy tafakkurni senzurasiz taqdim etish demokratik jamiyatni insonlar tafakkurining rivojlanashi uchun ko'prik vazifasida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar 5-jild. T, 2010.
2. www.ziyouz.uz
3. www.islom.uz
4. www.azontv.uz
5. Jafar Xolmo'minov. Tasavvuf: tarixi va ta'rifi
6. To'raev L. A. O. G. L., Nizomova N. Q. SHARQ ALLOMALARINING DUNYOQARASHIDA TA'LIM-TARBIYA MASALASI //International scientific journal of Biruni. – 2023. – T. 2. – №. 1. – C. 16-20.
7. Bahromjon o'g'li O. A. Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat” asarida axloqiy tamoyillarning namoyon bo'lishi //Ustozlar uchun. – 2023. – T. 45. – №. 6. – C. 11-16.